



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA KOMPLAYENS NAZORATINI TASHKIL QILISH VA UNING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmatullayeva Fotima Inoyatullayevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda O'zbekiston tijorat banklarida komplayens nazoratini tashkil qilish , uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning zaruriyati, ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida moliyaviy monitoringning muhim vositasi sifatida muvofiqlik nazoratining asosiy tushunchalari ko'rib chiqilib, banklarda komplaens nazoratni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, komplaens nazorat, tekshiruv, huquq, qonun, korrupsiya,muvofiqlik nazorati, moliyaviy monitoring, jinoiy daromadlarni legallashtirishning oldini olish, terrorizmni moliyalashtirish, Bazel.*

Kirish

Hozirgi vaqtida jahon moliyaviy globallashuvi davrida moliyaviy menejment, xususan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish uchun moliyaviy nazoratning muhim qismi sifatida moliyaviy monitoring samaradorligini oshirishga bo'lgan talablar ta'sirida sezilarli darajada faollashmoqda. Bank tizimida komplaens-nazorat tizimini joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, BMTTDning korrupsiyaga qarshi kurash loyihasi, KPMG uchun dolzarb bo'lib qoldi. Unda Markaziy bank xodimlari, muvofiqlik-nazorat tizimida faoliyat yurituvchi tijorat banklari rahbarlari va mutaxassislari ishtiroy etdi.

Mavzuning dolzarbligi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati keng ko'lamli moliyaviy operatsiyalar, tezkor qaror qabul qilish va yuqori darajadagi xavf omillari bilan



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, so'nggi yillarda bank tizimida qonunchilik talablari va xalqaro moliyaviy standartlar keskin yangilanayotgani, shuningdek, raqamli texnologiyalar joriy etilayotgani ushbu muassasalarda muvofiqlik (komplayens) funksiyasining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Hozirda, korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro miqyosdagi kabi respublikamizda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etishda keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rghanish, unga tanqidiy yondoshgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish lozim bo'ladi.

Komplayens (Compliance) atamasi bank faoliyatida "muvofiglikni ta'minlash" degan ma'noni anglatadi. Bu funksiyaning vazifasi shundaki, u bankning barcha bo'limlari va xodimlarining faoliyatini ichki siyosatlar, milliy qonunchilik, xalqaro moliyaviy regulyatsiyalar va axloqiy tamoyillarga muvofigligini ta'minlaydi. Komplayens tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yuritadi.

Komplaens nazorat – bu qonunchilik, ichki normative hujjatlar va boshqa regulyator (nazorat organlari, moliya bozori, qonun-qoidalari va standartlari) ga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni nazorat qilish. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, davlat va xususiy sektor faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish «komplaens nazorat» tizimini joriy etishning qator samarali omillarga xizmat qiladi.

Tijorat banklarida komplayens funksiyasi huquqiy, axloqiy va operatsion jihatdan muvofiglikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bir necha asosiy yo'nalishlarda faoliyat yuritadi. Birinchidan, huquqiy nazorat — bu bankning barcha faoliyat turlarini milliy qonunchilik va xalqaro regulyativ talablar bilan muvofigligini ta'minlashdir. Komplayens tizimining muhim komponentlaridan biri bu — KYC (Know Your Customer) mexanizmi hisoblanadi. U mijozlarni aniqlash, ularning hujjatlarini tekshirish va risk darajasini baholash orqali firibgarlik va pul yuvish kabi salbiy holatlarning oldini olishga yordam beradi. Nihoyat, reputatsion risklarni boshqarish funksiyasi bank obro'sini xavf ostiga qo'yuvchi xatti-harakatlar va vaziyatlarni erta aniqlab, oldini olish choralarini ishlab chiqadi. Ushbu barcha yo'nalishlar birgalikda komplayens tizimining ichki nazoratdagi rolini mustahkamlaydi.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

O‘zbekistonning yirik moliyaviy institutlaridan biri bo‘lgan “O’zsanoatqurilishbank” ATB so‘nggi yillarda komplayens tizimini yanada takomillashtirish yo‘lida muhim chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2022-yildan boshlab bankda moliyaviy monitoring platformalari ishga tushirilib, barcha yirik va g‘ayrioddiy tranzaksiyalar real vaqt rejimida kuzatiladigan tizim joriy etildi. Bu esa, AML (Anti-Money Laundering) bo‘yicha monitoring samaradorligini 30 foizga oshirdi.

КОМПЛАЕНС-НАЗОРАТ БОШҚАРМАСИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ:

- Хизмат сири ва маълумотларининг конфиденциаллигини сақлаш;
- Номзодларни ишга қабул қилишнинг очиқ ва шаффофтариби;
- Банк ходимларининг хуқуқий онгини оширишга қаратилган ўкув семинарларини ташкил этиш; Хайрия ва ҳомийлик ёрдамини кўрсатиш тартиби;
- Хизмат текширувларини ўтказиш ва баҳолаш;
- Алоқа каналларидан келиб тушган мурожаатлар билан ишлаш

Xulosa va Taklif

Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish xavfini zararsizlantirish uchun moliyaviy monitoring mexanizmi sifatida komplaens nazoratni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash choralarini bo‘yicha tasdiqlangan monitoring mexanizmidan iborat; mijoz tomonidan uni identifikatsiyalash va tekshirish paytida taqdim etilgan ma'lumotlarni, shu jumladan moliyaviy barqarorlik va tadbirdorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish; monitoring qilishda, shuningdek, majburiy nazorat qilinadigan mijoz operatsiyalarini aniqlash va ushbu ma'lumot va nazorat natijasida olingan ma'lumotlarni saqlash; shuningdek, bank xodimlarining malakasini muntazam oshi rib borish.

Tijorat banklari faoliyatida komplayens funksiyasi ichki nazorat tizimining yadro komponenti sifatida muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat huquqiy muvofiqlikni ta’minlaydi, balki bank ishonchliligin oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va xalqaro moliyaviy tizimda integratsiyalashuvni mustahkamlashda asosiy vositadir.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan komplayens tizimi kelajakda bank boshqaruvi va audit tizimining rivojlanishiga muhim o’rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Abdullayeva, N.V. (2023) ‘Tijorat banklarida komplayens funksiyasi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari’, Bank ishi va audit, 2, pp. 14–21.
2. Islomov, Sh.B. (2022) ‘Bank tizimida moliyaviy monitoring va komplayens xizmatining o‘zaro integratsiyasi’, Iqtisodiyot va moliya, 4, pp. 45–51.
3. Abramov, A.V. (2021) ‘Komplaens v bankovskoy sisteme: pravovye i organizatsionnye aspekty’, Finansy i kredit, 7, pp. 39–47.
4. Goryachev, E.N. (2020) ‘Vnedrenie sistemy vnutrennego kontrolya i komplaensa v kommercheskikh bankakh’, Bankovskoe delo, 6, pp. 28–34.
5. Lee, H.J. and Kim, S.Y. (2021) ‘Compliance Risk Management in Asian Commercial Banks: A Strategic Framework’, Asian Journal of Finance, 13(3), pp. 55–70.
6. Chen, L. (2022) ‘Internal Control and Compliance in Chinese Commercial Banks